

Qodirova Munisa Erkinjon qizi

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: munisakadirova9894@gmail.com

Tel: +998 90 267 78 00

UDK: 811.82.45

**INNOVATSION SAN'AT TURLARI TERMINLARINING SEMANTIK
XUSUSIYATLARI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

Annotatsiya: Ushbu maqola san'at va texnologiyaning o'zaro ta'siridan kelib chiqqan innovatsion san'at turlari uchun qo'llaniladigan terminlarning semantik xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot ingliz va o'zbek tillaridagi terminlar misolida olib borilib, san'atga texnologiyalar kirib kelishi natijasida yuzaga kelgan yangi tushunchalar va ularning semantik tahlilini o'rganadi. Shuningdek, texnologiyaga asoslangan san'at turlaridagi terminlar qanday paydo bo'lgani, ularning neologizm sifatida shakllanishi va boshqa fanlardagi terminlar bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Lingvistik tadqiqot orqali ushbu atamalarining ikki til orasidagi semantik mosligi, ularning madaniy va tilshunoslik asoslari o'rganiladi. Maqola zamonaviy san'at va texnologiya sohasida yangi terminlar shakllanishi va ularning tilga ta'siri bilan bog'liq ilmiy tahlilga qaratilgan bo'lib, bu masala bo'yicha tushunchalarni boyitishga hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: innovatsion san'at, san'at terminologiyasi, neologizmlar, digital art (Raqamli san'at), NFT san'ati, VR-art.

**СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕРМИНОВ
ИННОВАЦИОННЫХ ВИДОВ ИСКУССТВА (НА ПРИМЕРЕ
АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)**

Кадирова Муниса Эркинжон кизи

Докторант Термезского государственного университета

Э-почта: munisakadirova9894@gmail.com

Тел: +998 90 267 78 00

Аннотация: Данная статья посвящена анализу семантических особенностей терминов, используемых для обозначения инновационных видов искусства, возникших на стыке искусства и технологий. Исследование проводится на примере терминов английского и узбекского языков и изучает новые концепции, возникшие в результате внедрения технологий в искусство, а также их семантический анализ. Также рассматриваются, каким образом появились термины, связанные с искусством, основанным на технологиях, их формирование в качестве неологизмов и их взаимосвязь с терминами из других областей знаний. Лингвистическое исследование направлено на изучение семантической совместимости этих терминов в двух языках, их культурной и лингвистической основы. Статья посвящена научному анализу формирования новых терминов в области современного искусства и технологий и их влиянию на язык, что способствует углублению понимания данной темы.

Ключевые слова: инновационное искусство, терминология искусства, неологизмы, цифровое искусство, NFT-искусство, VR-арт.

SEMANTIC FEATURES OF TERMINOLOGY IN INNOVATIVE ART FORMS (BASED ON ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES)

Kadirova Munisa Erkinjon qizi

Doctoral student of Termiz State University

E-mail: munisakadirova9894@gmail.com

Phone: +998 90 267 78 00

Annotation: This article is dedicated to the analysis of the semantic features of the terms used for innovative art forms that have emerged from the interaction between art and technology. The research is conducted using examples of terms from English and Uzbek languages, exploring new concepts that have arisen as a result of the introduction of technology into art and their semantic analysis. Additionally, the article examines how technology-based art terms originated, their formation as neologisms, and their connections with terms from other fields. Through linguistic research, the semantic compatibility of these terms between the

two languages, as well as their cultural and linguistic foundations are explored. The article is focused on the scientific analysis of the formation of new terms in modern art and technology and their impact on language, contributing to a deeper understanding of this issue.

Keywords: innovative art, art terminology, neologisms, digital art, NFT art, VR-art.

Kirish.

Zamonaviy dunyoda texnologiyalar inson hayotining deyarli barcha jabhalariga jumladan, san'at sohasiga ham kirib kelmoqda. An'anaviy san'at turlari bilan bir qatorda, texnologiyalar bilan bog'liq innovatsion san'at shakllari keng rivojlanmoqda. **Digital art** (raqamli san'at), **VR-art** (virtual reallik san'ati), **NFT-art** (no'monand token san'ati) kabi tushunchalar bugungi kunda zamonaviy san'atning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ushbu yangi san'at turlarining rivojlanishi natijasida ko'plab yangi terminlar paydo bo'ldi va bu atamalar ko'pincha ingliz tilidan boshqa tillarga o'zlashmoqda.

Adabiyotlar tahlili.

Tilshunoslikda termin tushunchasi, terminalogiya sohasida, sohaviy terminalogiya yo'nalishida qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, san'atga oid terminlarning o'rganilishi va ularning dolzarblik darajasining yuqoriligi hozirgi kunda ham olimlarning e'tibor markazidadir. Ular orasidan A. Hojiyev [2], G.S. Hojiyeva [6], V.P. Danilenko [8], O. S. Axmanova [7], Sh. Samusiam, S. Lubenskaya, L. Peretsman, V. N. Golovin va boshlarni ta'kidlash joizdir.

Jahon tilshunosligida yangi sohalar bo'lmish raqamli san'at, visual san'at, virtual san'atlar ularga xos bo'lgan terminlar to'g'risida ham ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ular orasida C. Paul [4], D. Kravets [3], G. Bell [1], H. Rheingold [8]larning izlanishlari mavzuning dolzarbligi hamda bugungi kun jahon terminalogiyasidagi so'nggi muommolarga bergan yechimlari bilan ajralib turadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada innovatsion san'at turlari bilan bog'liq terminlarning semantik xususiyatlarini tahlil qilish uchun kompleks lingvistik tahlil va qiyosiy

metodlardan foydalanildi. Tadqiqot asosan ingliz va o‘zbek tillaridagi terminlar bazasini qamrab olib, ushbu tillarda yangi texnologiyalar bilan bog‘liq san‘at atamaları qanday shakllanganini, o‘zaro qanday farqlanishini va ularning semantik mosligini o‘rganishga qaratildi.

Mazkur maqolada izlanish quyidagi bosqichlarda olib borildi:

- 1. Terminologik baza yig‘ish;
- 2. Qiyosiy tahlil;
- 3. Semantik tahlil.

Tahlillar va natijalar.

Quyida san‘atning zamonaviy turlariga xos bo‘lgan terminlarning semantik tahlil natijalarini ko‘rishingiz mumkin:

Inglizcha termin	O‘zbekcha termin	Ularning semantik tahlili
Digital Art	Raqamli san‘at	Texnologiyalar yordamida yaratiladigan san‘at turlari, asosan, grafikalar, videolar va interaktiv san‘atni o‘z ichiga oladi.
NFT	No‘monand token	Raqamli san‘at asarlarining egasini tasdiqlovchi texnologiya, blokcheyn asosida yaratiladi.
VR Art	VR-san‘at	Virtual reallik texnologiyalaridan foydalanib yaratilgan san‘at turlari, tomoshabinlarni interaktiv tajribaga jalb qiladi.
Augmented Reality	Kengaytirilgan reallik	Haqiqiy dunyoda raqamli elementlar qo‘shilgan san‘at, foydalanuvchilarga yangi tajribalar taqdim etadi.
Animation	Animatsiya	Raqamli usullar bilan harakatlanuvchi tasvirlar yaratish jarayoni, ko‘plab san‘at turlarida qo‘llaniladi.
3D Modeling	3D modellashtirish	Uch o‘lchovli obyektlar yaratish jarayoni, ko‘plab raqamli san‘at asarlarining asosidir.

Interactive Art	Interaktiv san'at	Tomoshabinlarning ishtirokini talab qiladigan san'at, foydalanuvchilarni jalb etadi.
Graphic Design	Grafik dizayn	Vizual san'at turi, raqamli media yordamida ko'rgazma, reklama va boshqa maqsadlarda qo'llaniladi.
Digital Illustration	Raqamli illyustratsiya	Raqamli vositalar yordamida yaratilgan tasvirlar, kitoblar va maqolalarda ko'rinadi.
Concept Art	Konseptual san'at	Raqamli san'atning dastlabki bosqichidagi asarlar, ko'pincha o'yinlar va filmlarda ko'rinadi.
Photo Manipulation	Foto manipulyatsiya	Raqamli texnologiyalar yordamida suratlarni tahrirlash, turli effektlar qo'shish va yaxshilash.
Glitch Art	Glitch san'ati	Raqamli xatolarni san'atga aylantirish jarayoni, ko'pincha vizual eksperimentlarga asoslangan.
Pixel Art	Pixel san'ati	Piksellar yordamida yaratilgan tasvirlar, odatda retro o'yinlar va raqamli san'atda ko'riladi.
Blockchain Art	Blokcheyn san'ati	Blokcheyn texnologiyasi yordamida yaratilgan va saqlangan san'at asarlari, NFT larni o'z ichiga oladi.
Transmedia Art	Transmedia san'ati	Bir necha platformalar va formatlar orqali ifodalangan san'at asarlari, ko'pincha interaktiv tajribalar bilan bog'liq.

Raqamli san'at atamaları nafaqat texnologik yangiliklarni, balki madaniyat va ijtimoiy o'zgarishlarni ham aks ettiradi. Masalan, NFT va blokcheyn san'ati kabi atamalar, san'at va iqtisodiyot o'rtasidagi munosabatlarni ham ko'rsatadi, bu esa san'atning yangi iqtisodiy modelga o'tishini bildiradi.

Xulosa.

Umuman olganda, raqamli san'at va texnologiya o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rganish, yangi terminlarni yaratish va ularning semantik tahlili zamonaviy san'at va madaniyatni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ushbu maqola, san'at

terminologiyasi bo'yicha tadqiqotlar va lingvistik tadqiqotlarga hissa qo'shib, san'at va texnologiya sohasidagi yangi tendensiyalarni aniqlashda muhim asos bo'lishi kutilmoqda.

Adabiyotlar

1. Bell G. Cultural Perspectives on Technological Art and Its Terminology. – Art & Technology Review, 22(3), 2019. – pp. 45-67.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – 168 b.
3. Kravets D. The Impact of Virtual Reality on Contemporary Art. – Journal of Visual Culture, 16(2), 2017. – pp.123-137.
4. Paul C. Digital art. – London: Thames & Hudson, 2003. – 224 p.
5. Rheingold H. Smart Mobs: The Next Social Revolution. – Basic Books, 2002. – 288 p.
6. Xojiyeva G. S. San'atga oid terminlarning leksik-semantik va milliy-madaniy taxlili (fransuz va o'zbek tillari misolida): filol.fan.dok. (PhD). ... diss. aftoref. – Toshkent, 2021. – 54 b.
7. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: «Сов. Энциклопедия», 1966. – 608 с.
8. Даниленко, В.П. Русская терминология: опыт лингвистического описания. – Москва: Наука, 1977. – 248 с.